TIBBIYOT TILI VA UNING O‘RGANILISHI

Siradjidinova Xilola
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20132327

Annotatsiya: Ushbu maqolada tibbiyot tili va uning o‘rganilish jarayoni yoritilgan. Tibbiyot tili maxsus terminologik tizim sifatida kasalliklar, tashxis, davolash usullari hamda shifokor-bemor o‘rtasidagi muloqotni ta’minlashda muhim ahamiyatga ega ekani ko‘rsatib berilgan. Maqolada tibbiyot terminlarining kelib chiqishi, asosan lotin va yunon tillariga borib taqalishi, ularning ilmiylik, aniqlik va xalqaro xarakterga ega ekani tahlil qilingan. shuningdek, tibbiyot tilini o‘rganishning amaliy ahamiyati, uning zamonaviy tibbiyotdagi o‘rni va rivojlanish jarayoni yoritilgan.

Kalit so‘zlar: tibbiyot tili, terminologiya, lotin tili, yunon tili, ilmiylik, xalqaro aloqa, tibbiy terminlar, shifokor-bemor muloqoti, diagnostika, davolash.

Annotation. This article discusses the medical language and the process of its study. medical language is presented as a special terminological system that plays an important role in describing diseases, diagnosis, treatment methods, and communication between doctors and patients. the article analyzes the origin of medical terms, mainly derived from latin and greek, and highlights their scientific nature, precision, and international character. it also emphasizes the practical importance of learning medical terminology and its role in modern medical development.

Keywords: medical language, terminology, latin language, greek language, scientific nature, international communication, medical terms, doctor-patient communication, diagnosis, treatment.

Аннотация. В данной статье рассматривается медицинский язык и процесс его изучения. медицинский язык представлен как специальная терминологическая система, играющая важную роль в описании заболеваний, диагностике, методах лечения и коммуникации между врачом и пациентом. в статье анализируется происхождение медицинских терминов, в основном из латинского и греческого языков, а также их научный характер, точность и международное значение. также подчеркивается практическая важность изучения медицинской терминологии и её роль в развитии современной медицины.

Ключевые слова: медицинский язык, терминология, латинский язык, греческий язык, научность, международное общение, медицинские термины, врачебно-пациентское общение, диагностика, лечение.

Kirish. Til insoniyat jamiyatining eng muhim aloqa vositalaridan biri hisoblanadi. Har bir fan sohasi o‘ziga xos terminologik tizimga ega bo‘lib, bu tizim mutaxassislar o‘rtasidagi ilmiy va amaliy muloqotni ta’minlaydi. Tibbiyot sohasi ham bundan mustasno emas. Tibbiyot tili nafaqat kasalliklar, tashxis va davolash usullarini ifodalashda, balki shifokor hamda bemor o‘rtasidagi samarali kommunikatsiyani yo‘lga qo‘yishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy tibbiyotning rivojlanishi, xalqaro ilmiy hamkorlikning kengayishi va yangi texnologiyalarning kirib kelishi tibbiyot tilini chuqur o‘rganishni zaruriyatga aylantirmoqda.

Tibbiyot tili — bu tibbiyot sohasi vakillari tomonidan qo‘llaniladigan maxsus terminlar, iboralar va ilmiy tushunchalar tizimidir. Ushbu til anatomiya, fiziologiya, farmakologiya, jarrohlik, terapiya va boshqa ko‘plab yo‘nalishlarni qamrab oladi. Tibbiyot tilining asosiy qismini terminologiya tashkil etadi.Tibbiyot terminlarining aksariyati lotin va yunon tillaridan olingan. Buning sababi qadimgi davrlarda ilm-fan va tibbiyot aynan shu tillarda rivojlanganidir. Masalan, “cardio” — yurak, “neuro” — asab, “gastro” — oshqozon ma’nolarini bildiradi. Lotin tili esa dorivor vositalar nomlari va anatomik atamalarda keng qo‘llanadi.Tibbiyot tilining yana bir muhim jihati uning aniqligi va qisqaligidir. Har bir termin muayyan ma’noni ifodalaydi va noto‘g‘ri talqin qilish ehtimolini kamaytiradi. Bu esa bemorga tashxis qo‘yish va davolash jarayonida xatolarni oldini olishga xizmat qiladi.

Tibbiyot tili bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega:

Ilmiylik-tibbiyot tili ilmiy asoslangan bo‘lib, undagi terminlar aniq ma’noga ega. Har bir tushuncha ilmiy dalillar bilan bog‘langan holda qo‘llaniladi.

Xalqaro xarakter-dunyoning turli mamlakatlarida tibbiyot terminlarining katta qismi bir xil shaklda qo‘llaniladi. Bu xalqaro konferensiyalar, ilmiy maqolalar va tajriba almashish jarayonlarini yengillashtiradi.

Murakkablik- tibbiyot terminlari ko‘pincha murakkab tuzilishga ega bo‘lib, ularni o‘rganish ma’lum tayyorgarlikni talab qiladi. Ayniqsa, lotin va yunon tiliga oid bilimlar tibbiyot terminologiyasini o‘zlashtirishda muhim ahamiyatga ega.

Qisqalik va aniqlik-tibbiyot tilida qisqa, ammo mazmunan keng terminlardan foydalaniladi. Masalan, “tachycardia” termini yurak urishining tezlashgan holatini ifodalaydi.

Xo‘sh, o‘zidan o‘zidan savol tug’iladi. Tibbiyot tilini o‘rganishning ahamiyati nimada?

Tibbiyot tilini o‘rganish bo‘lajak shifokorlar, hamshiralar va farmatsevtlar uchun muhim hisoblanadi. Chunki professional faoliyat davomida to‘g‘ri terminologiyadan foydalanish yuqori malakali mutaxassisning asosiy belgilaridan biridir.

Birinchidan, tibbiyot tilini bilish ilmiy adabiyotlarni o‘qish va tushunish imkonini beradi. Hozirgi kunda ko‘plab zamonaviy tadqiqotlar ingliz tilida olib boriladi va xalqaro terminologiyaga asoslanadi.

Ikkinchidan, tibbiyot tilini puxta egallash shifokor va bemor o‘rtasidagi muloqotni yaxshilaydi. Shifokor murakkab tibbiy terminlarni bemorga sodda va tushunarli shaklda izohlab bera olishi kerak.

Uchinchidan, tibbiyot terminologiyasini bilish klinik hujjatlarni to‘g‘ri yuritish uchun zarurdir. Kasallik tarixi, tashxis va laboratoriya natijalarida terminlardan aniq foydalanish muhim hisoblanadi. Tibbiyot tilini o‘rganishda bir necha samarali usullar mavjud:



Bugungi kunda tibbiyot universitetlarida terminologiya faniga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu esa talabalarni xalqaro tibbiy standartlarga mos ravishda tayyorlashga xizmat qiladi.

Tibbiyot sohasining jadal rivojlanishi natijasida yangi atamalar, dori nomlari, kasallik turlari, davolash usullari va apparatlar uchun yangi so‘zlar zarurati paydo bo‘ladi. Shu bois o‘zbek tibbiy terminologiyasi doimiy ravishda yangilanib, tilning ichki so‘z yasash imkoniyatlari orqali boyib boradi. [5; 246-247] Masalan, Sh.Zoitova o‘z maqolasida “jarroh+lik”, “kekir+dak”, “liqil+doq”, “yo‘l+dosh” kabi milliy shakllar so‘z yasalish tizimi orqali hosil bo‘lganini ta’kidlaydi.

Tibbiyot tili va terminologiyasini o‘rganishda qator o‘zbek olimlari o‘z hissalarini qo‘shganlar.Jumladan, H.Dadaboyev, M. Abuzalova, M.N.Boliyev, H. G‘aniyev, Sh.Rahmatullayev, D.Karimova, Z. Mirahmedova, Sh.Zoitova va boshqalar.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, tibbiyot tili tibbiyot sohasining ajralmas qismi bo‘lib, u mutaxassislar o‘rtasidagi ilmiy va amaliy muloqotni ta’minlaydi. Tibbiyot terminologiyasining xalqaro xarakterga ega ekanligi zamonaviy tibbiyot taraqqiyotida muhim o‘rin tutadi. Ushbu tilni chuqur o‘rganish tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini oshirish, ilmiy axborotlarni to‘g‘ri tushunish va bemorlarga sifatli xizmat ko‘rsatishda katta ahamiyatga ega. Shu sababli tibbiyot tilini o‘qitish va o‘rganish jarayonini yanada takomillashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boliyev. M.N.Lotin tili va tibbiyot terminologiyasi. – Toshkent: Ilm-ziyo, 2011.
2. G‘aniyev H. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining so‘z yasalish tizimi. – Toshkent, 2001.
4. Karimova D. O‘zbek tibbiy terminologiyasining shakllanishi va rivoji. – Toshkent, 2019.
5. Mirahmedova Z. O‘zbek tilining anatomiya terminologiyasi va uni tartibga solish muammolari. – Toshkent: Fan, 2010.
6. Zoitova Sh, O‘zbek tilida tibbiy terminlarning yasalish usullari// Til va adabiyot.uz, 20-son.2025.